TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Nigora Normurodova Abdusattorovna
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Abdullayeva Sadoqatxon Mag'ribjon qizi
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar adabiyoti namunalaridan samarali foydalanish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Bolalar adabiyotining shaxs kamolotiga, axloqiy, estetik va ma'naviy tarbiyasiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida badiiy asarlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari, pedagogik yondashuvlar hamda o'qituvchi va tarbiyachilarning bu boradagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalar adabiyotining ta'sir samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, ta'lim-tarbiya, pedagogik samaradorlik, metodika, badiiy asar, o'quv jarayoni, tarbiyaviy ta'sir, shaxs kamoloti, ma'naviy tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье теоретически и практически анализируется вопрос эффективного использования образцов детской литературы в учебно-воспитательном процессе. Влияние детской литературы на формирование личности, нравственное, эстетическое и духовное воспитание раскрывается на научной основе. Также рассматриваются методические возможности использования художественных произведений в учебно-воспитательном процессе, педагогические подходы и пути совершенствования деятельности учителей и воспитателей в этой сфере. В исследовании представлены практические рекомендации по повышению эффективности воздействия детской литературы с использованием современных образовательных технологий.*

Ключевые слова: *детская литература, обучение и воспитание, педагогическая эффективность, методика, художественное произведение, учебный процесс, воспитательное воздействие, формирование личности, духовное воспитание.*

Abstract: *This article provides a theoretical and practical analysis of the issue of effectively utilizing samples of children's literature in the educational process. The influence of children's literature on personal development, moral, aesthetic, and*

spiritual education is illuminated on a scientific basis. Furthermore, the methodological possibilities of using literary works in the teaching and educational process, pedagogical approaches, and ways to improve the activities of teachers and educators in this area are considered. The research offers practical recommendations for enhancing the effectiveness of children's literature through the use of modern educational technologies.

Keywords: *children's literature, education and upbringing, pedagogical effectiveness, methodology, literary work, educational process, educational impact, personal development, spiritual education.*

Har bir tarixiy davr inson tafakkuri va dunyoqarashining o‘zgarishi, yangilanishi orqali jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab beradi. Ijtimoiy hayotda kechadigan bosqichma-bosqich o‘zgarishlar, ilm-fan yutuqlari, texnologik hamda madaniy taraqqiyot insoniyat tafakkurini, uning ma’naviy dunyosini boyitadi. Shu bilan birga, millat o‘z tarixiga, qadriyatlariga va madaniy merosiga yangicha nigoh bilan qaraydi. Bunday jarayonlar, tabiiyki, adabiyotda, ayniqsa, bolalar adabiyotida o‘z aksini topadi.

Bolalar adabiyoti bilan pedagogika bir-biriga uzviy bog‘liq fan sohalaridir. Har ikkala yo‘nalishning bosh maqsadi – yosh avlodni har tomonlama barkamol inson sifatida tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy va estetik rivojiga xizmat qilishdir[1]. Shu bois bolalar adabiyoti nafaqat estetik zavq uyg‘otuvchi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy hodisadir. Bolalar yozuvchilari o‘z asarlari orqali yoshlarning ongi, xarakteri va irodasini shakllantiradilar, ularni vatanparvar, mehnatsevar, halol va odobli insonlar etib voyaga yetkazishda muhim rol o‘ynaydilar.

Mustaqil O‘zbekiston sharoitida ta’lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng muhim vazifalari jismonan sog‘lom, ma’naviy barkamol, zamonaviy tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Bu masala bolalar adabiyotiga bevosita aloqador bo‘lib, bunday asarlar tarbiyaviy, estetik va ma’naviy jihatdan mukammal bo‘lishi zarur. Faqat yuqori badiiy saviyaga ega asarlargina bolalar tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va ularning dunyoqarashini shakllantiradi.

Bolalar adabiyotining o‘ziga xos jihatlaridan biri harakat va voqealarning dinamikligi qolaversa, syujetning qiziqarli hamda tezkor rivoji muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bolalar adabiy asarlarida fantastika, yumor, sarguzasht unsurlari keng qo‘llaniladi[4]. Sharq adabiy an’analarida bolalar adabiyotining ildizlari qadimiy pandnoma, nasihatnoma va axloqiy yo‘nalishdagi asarlarga borib taqaladi. Kaykovusning “Qobusnoma”si, Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”i, Jomiyning “Bahoriston”i, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr” hamda “Mahbub ul-qulub” kabi asarlari yoshlarni ezgulik, odob, ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan[5].

Alisher Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasi alohida o‘rin egallaydi. U o‘z asarlarida bolalarni ilm-hunar o‘rganishga, mehnatni qadrlashga, bilimni xalq va vatan manfaatlariga yo‘naltirishga chaqiradi. Navoiy fikricha, inson komillikka faqat yoshligidan boshlab tinimsiz o‘qish, o‘rganish va izlanish orqali erishadi. Shu bois Navoiy ilm-ma’rifatni insonni yuksaltiruvchi eng muhim omil sifatida talqin qiladi.

Badiiy adabiyot bolalarga hayotni o‘rganish, insoniy fazilatlarni anglash va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Asarlardagi qahramonlar hayoti, ularning his-tuyg‘ulari hamda xatti-harakatlari bolalarda ijobiy hislar uyg‘otadi, ularni yaxshilik va yomonlikni farqlashga o‘rgatadi. Shu jihatdan badiiy adabiyot ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshlang’ich ta’lim tashkilotlarida pedagoglarning vazifalaridan biri badiiy asarlarni bolalarga san’at asari sifatida yetkazish, asardagi g‘oya va obrazlarni tushunarli tilda sharhlash, ularning his-tuyg‘ularini uyg‘otish, badiiy nutqqa e’tiborli bo‘lishga o‘rgatishdan iboratdir. Bu jarayonda pedagogning ifodali o‘qish mahorati, asarni tahlil qilish bilan bir qatorda ovoz, urg‘u, pauza kabi nutq vositalaridan samarali foydalanishi muhim ahamiyatga ega[2].

Bolalar adabiyotining tarbiyaviy samaradorligi ko‘p jihatdan asarlarning janr xilma-xilligiga bog‘liqdir. Folklor janrlari ya’ni, ertak, maqol, matal, topishmoq, masal va hikmatli so‘zlar bolalar tafakkurini rivojlantirishda, ularning estetik didini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lgan ertaklar asosida xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ezgulik haqidagi tushunchalari mujassamlashadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda inson orzu-istaklari, ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi, mehnat, sabr-toqat, do‘stlik, vafodorlik singari fazilatlar ulug‘lanadi. “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh”, “Ur to‘qmoq” kabi ertaklar bolalar ongida ezgulikni sevish, mehnatni qadrlash, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘ularini mustahkamlaydi[6].

Bolalar adabiyotining maqsadlaridan biri yosh avlodni imon-e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu sababli bolalar uchun yozilgan har bir asar ularning yosh hamda psixologik xususiyatlariga mos, sodda, obrazli va hayotiy bo‘lishi zarur.

Pedagogika bilan bolalar adabiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ularning mushtarak maqsadida yaqqol ko‘rinadi. Ikkala yo‘nalish ham yosh avlodga to‘laqonli aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya berishni ko‘zlaydi. Shu bois o‘qituvchi va tarbiyachilar bolalar adabiyotidan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yo‘llarini chuqur bilishlari lozim.

Badiiy kitoblar bolalar uchun hayotiy tajriba manbai, axloqiy yo‘l-yo‘riq, tafakkurni rivojlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bolalar kitobxonligini to‘g‘ri tashkil

etish, ularga mos adabiyotlar tavsiya etish, o‘qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar, mushoiralar, sahnalashtirilgan chiqishlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar adabiyotini keng targ‘ib qilish, ularning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirish nafaqat pedagoglarning, balki ota-onalarning ham muhim vazifasidir. Oilada ilm va kitobsevarlik muhiti yaratilgan taqdirdagina bolalarda o‘qishga bo‘lgan mehr, badiiy did hamda ma’naviy o‘sish uchun mustahkam poydevor shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, iymon-e’tiqodli shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois pedagoglar badiiy asarlardan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini puxta egallashlari zarur.

Yuqoridagi tahlil va mulohazalardan kelib chiqib, quydagi tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin:

- Birinchidan, Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar adabiyotiga e’tiborni kuchaytirish lozim. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalarini muntazam o‘qish hamda tahlil qilish darslari yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.
- Ikkinchidan, Bolalar adabiyotidan foydalanishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuv uyg‘unligini ta’minlash kerak. O‘zbek xalq ertaklari, dostonlari, zamonaviy bolalar yozuvchilari asarlarini birgalikda tahlil etish tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.
- Uchinchidan Pedagogik tadqiqotlar doirasida bolalar adabiyotining psixologik va tarbiyaviy ta’sir mexanizmlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Bu natijalar keyingi metodik tavsiyalarni ilmiy asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun.2020.23.09
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019- yil 16- dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni
3. Kazakova, T.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning vizual faoliyati va badiiy rivojlanishi - M.: Pedagogika, 1985 yil
4. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti T. “O‘qituvchi”-2008y. 152 bet
6. Kiyikbayev F.Q. Bolalar adabiyoti. Andijon. 2020
7. https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2020/09/09/rol-hudozhestvennoy-literatury vo-vsestoronnem-vospitanii-detey